



PSIXOTROP VOSITALAR

*1-son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomtligi texnikumi 2-
Umumkasbiy modular kafedrasi o'qituvchisi*

Boboyeva Dono Abduqodirovna

Annotatsiya: Psixotrop vositalar bu-Insonlarning aqliy mehnat faoliyatiga,tuyg'ulariga va ruhiyatiga ta'sir etuvchi preparatlardir.Psixotrop vositalar asosan qo'rquv,hayajon,vahima,xavotirlik va bezovtalik bilan kechadigan nevrozlarda qo'llaniladi.Insonda ruhiy jarayon fikrlash va his-tuyg'udan iborat.

Psixoptrop vositalar(preparatlar) inson ruhiyatiga ta'siri bo'yicha ikkita katta guruhga bo'linadi:

1.Psioxosedativlar.

2. Psixostimulatorlar.

Preparatlarning ta'siri asosan ruhiy va emotsiyal tizim faoliyatining buzilishi natijasida kelib chiqadigan o'zgarishlarda yaxshi namoyon bo'lib, ta'siri ko'proq bilinadi. Ruhiy holat, vajohatlanish, hayajonlanish, harakatning qo'zg'alishi tinchlanadi. Bular odamning es-hushiga ta'sir qilmaydi, uyquga sabab bo'lmaydi.

Psixosedativ vositalar farmakologik ta'siri bo'yicha neyroleptiklar, trankvilizatorlar va sedativ vositalarga bo'linadi.

Kalit so'zlar:*Psixosedativ,psixostimulator,neyroleptik,trankvilizator,sedativ, antidepressant,adrenalitik.*

Аннотация: Психотропные средства — это лекарственные средства, которые влияют на психическую деятельность, эмоции и психику людей. Психотропные средства в основном применяются при неврозах, характеризующихся страхом, волнением, паникой, тревогой и беспокойством. Психический процесс у человека состоит из мышления и чувствования.

Психотропные препараты делятся на две большие группы в зависимости от их воздействия на психику человека:

1. Психоседативные средства.



2. Психостимуляторы..

Ключевые слова: Психоседативное, психостимулирующее, нейролептическое, транквилизатор, седативное, антидепрессант, адреналинтик.

Abstract: Psychotropic drugs are drugs that affect the mental activity, emotions, and psyche of people. Psychotropic drugs are mainly used in neuroses characterized by fear, excitement, panic, anxiety, and restlessness. The mental process in humans consists of thinking and feeling.

Psychotropic drugs are divided into two large groups according to their effect on the human psyche:

1. Psychosedatives.

2. Psychostimulants.

Key words: Psychosedative, psychostimulant, neuroleptic, tranquilizer, sedative, antidepressant, adrenalitic.

Psixotrop modallar asosan psixozlarda va psixonevrozlarda qo'llaniladi. Neyroleptiklarning ta'sir doirasi ancha keng, shunga ko'ra ko'pchilik kasallikkarni davolashda durustgina naf beradigan preparatlar hisoblanadi. Ko'pchilik neyroleptiklar bir qancha preparatlaming, chunonchi, narkoz vositalari, uxlatuvchi va og'riq qoldiruvchchi (ayniqsa, narkotik analgetiklar) dorilarning ta'sir kuchi va muddatini oshiradi. Shu bilan bir qatorda ay rim neyroleptiklar analgetiklar bilan birga ishlatilganda yangicha farmakologik ta'sir ham yuzaga chiqadi. Neyroleptiklaming bunday xususiyati tibbiyat amaliyoti uchun ancha muhimdir. Shuning uchun neyroleptiklar jarrohlik amaliyotida — anesteziologiyada, bemorni operatsiyaga taylorlashda neyroleptoanalgeziya uchun ishlatiladi. [1]

Ko'pchilik neyroleptiklarni, ayniqsa, fenotiazin unumlarini jigar, buyrakning og'ir kasallikkari, umumiyl tushkunlik (depressiya) holati, uyqu, narkoz, og'riqni qoldiruvchchi dorilar bilan zaharlanish, gipotoniyada qo'llab bo'lmaydi. [2]

Neyroleptiklar uzoq vaqt va katta dozalarda ishlatilganida zaharlanishga olib kelishi mumkin. Bunda odamda umumiyl bo'shashish kuzatiladi, tonus pasayadi va



ruhiy tushkunlikka tushib, uyquchan, kam harakat bolib qoladi, atrof muhitdag'i voqealarga qiziqmay qo'yadi, juda beparvo bolib, hadeb mudrayveradi. Shunday hollarda preparatlarni qabul qilish to'xtatilib, ularning antagonistlari, psixostimulatorlardan kofein, fenamin hamda antidepressantlar tavsiya etiladi.[3]

Neyroleptiklaming yuqorida qayd etilgan farmakologik xususiyatlari aminazinga xosdir. Aminazinning antipsixotik, tinchlantiruvchi ta'siri ancha kuchli, potensiyalovchi, gipotenziv, gipotermik va periferik (xolinolitik va adrenolitik) ta'sirlari ham bir qadar sezilarli. Bundan tashqari, u qusishga qarshi yaxshi kor qilib, tana mushaklarini sezilarli darajada bo'shashtiradi. Bu preparat ko'pincha ruhiy va harakat qo'zg'alishi bilan kechadigan kasallikkarda - psixoz holatlarida qo'llanadi. Aminazinning nojo'ya ta'sirlaridan biri to'qim ani mahalliy qitiqllovchi ta'siri hisoblanadi. Natijada aminazin tushgan joyda to'qimaning qizarishi (giperemiya), achishishi va qichishi kuzatiladi. Preparat mushaklar orasiga inyeksiya qilinsa, infiltratlar paydo bo'lishi, venaga yuborilganida esa tromboflebitlar bo'shanishi mumkin. Shuning uchun, aminazinning bunday ta'sirini kamaytirish maqsadida turli choralar ko'rildi. [4]

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibrohimovich A. H. MODERN FACTORS FOR RAISING STUDENT-YOUTH INNOVATIVE THINKING IN THE HIGHER EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – T. 15. – C. 202-206.
2. M.N.Mahsumov, X.Aliyev, M.A.Odilov, N.A.Musayeva "FARMAKOLOGIYA ASOSLARI" Toshkent "ILM ZIYO"-2007
3. F.Sh.Toshmuhammedova, H.U.Aliyev, R.Z.Nizomov "FARMAKOLOGIYA VA RETSEPTURA" 2003
4. S.S.Azizova "FARMAKOLOGIYA" Toshkent Yangi asr avlod 2006
5. Yu.M. Mamadov, M.A.Xo'jamberdiyev, B.Yu.Mamatov "KLINIK FARMAKOLOGIYA" Toshkent "TURON-IQBOL" 2010